

**PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MASOFAVIY O'QITISH
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi

JDPU Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

Talabalarga bilim berish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi asosida didaktik jarayonni bir butun holda loyihalash yotadi. Ta'lim sohasiga «loyihalash» tushunchasining kiritilishi bir qator metodologik muammolarni hal qilish bilan bog'liq, jumladan, fan atamalarining kengayishiga bo'lgan zarurat, ayrim an'anaviy kategoriyalar haqidagi tasavvurlarning qayta ko'rilishi, ularning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarning zarurligi va h.k. Pedagogik loyihalash pedagogning kasbiy faoliyat turi ekani shaxsan N.V.Borisova, V.P.Bespalko, G.A.Lebedeva, V.M.Monaxov, V.I.Orlov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Mashhur mualliflar ishlarining tahlili loyihalash masalalari berilgan fenomenini aniqlashga nisbatan uning mazmundor to'ldirilishi kam o'rganilganicha qolayotganligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qator psixologik-pedagogik ishlar «rejalashtirish», «oldindan aytish», «konstruksiyalash» loyihalashni nazarda tutadi. Loyihalashning bunday aniqlangan tushunchalari bilan bir qatorda uning to'la va aniq ta'rifini keltirishga zarurat tug'iladi.

Ilmiy psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarda loyihalashning quyidagi variantlardagi ta'rifi uchraydi.

N.V.Borisova loyihalash – bu ta'lim berish jarayonlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyat deb ta'kidlaydi. Keltirilgan ta'rifga asosan, pedagogik loyihalash ta'lim jarayoni sharoitlarida amalga oshiriladigan va uning samarali ishlashiga va rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining bunday faoliyati dolzarb muammoni hal etish ehtiyoji bilan asoslangan va ijodiy xarakterga ega. Uning natijasi pedagogik ob'ekt modeli bo'lib, u tizimli xossalarga ega, pedagogik kashfiyotga asoslanadi, chunki uning asosida muammoni yangicha hal etish usuli yotadi va foydalanishning mumkin bo'lgan variantlarini nazarda tutadi.

Har qanday pedagogik ta'lim amaliyotda har doim ham to'la amalga oshirilavermaydi. Pedagog loyihalashtirgan ba'zi jarayonlar, hodisalar tasodifiy omillarning ta'sir etishi natijasida uning nazoratidan chiqib ketishi mumkin. SHu sababli uning joriy etilishini ta'minlaydigan barcha elementlari, konstruktiv bo'g'inlari va shartlarini sub'ektlari sifatida individual xususiyatlarining ko'p omilligiga asosan sanab chiqish va tavsiflash haddan tashqari qiyin bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotida talabalar motivatsiya darajasining yetarli emasligi ularning qiziqishlariga, ehtiyojlariga mos o'qitish shakllari va metodlarini qo'llash hamda o'quv materialini taqdim etishdagi ishlari bilan to'g'rilanishi mumkin.

Bashoratlash (prognoz) loyihalashtirishdan bir qator muhim farqlarga ega. Bu, eng avvalo, loyihalashtirish bilan parallel ravishda amalga oshiriladigan ob'ektning rivojlanish istiqbollari tizimli tadqiq qilishdir. Bashoratlashning bosh maqsadi bo'lajak ob'ektning xarakteristikalarini tavsiflash, loyihalashtirishning bosh maqsadi esa uni qurishdir. Birinchisining natijasi bo'lajak ob'ektni abstrakt tasvirlash, ikkinchisining natijasi esa uning batafsil qurilishidir. Bashorat borliqqa muvofiqlikka, loyiha esa belgilangan maqsadga muvofiqlikka asoslanib baholanadi.

Ayrim manbalarda loyihalashtirish va rejalashtirish tushunchalarining turlicha talqin etilgan. Rejalashtirish o'qituvchini loyihalashtirish ishining hamma bosqichlarda foydalaniladigan katta bo'lmagan qismidir. Loyihani amalga oshirilishida rejaning qayd etilish shaklidir. Loyihada ob'ektning qurilishi, ko'rinishi, elementlari, rejada esa uning bir holatdan boshqa holatga o'tishi bo'yicha ko'rsatma tasvirlanadi. Bundan tashqari, V.V.Kraevskiy va I.Y.Lerner qayd etganlaridek, «Loyiha – o'qituvchining o'z bo'lajak faoliyati haqidagi tasavvuridir. Bunday tasavvur elementlarining hammasi ham rejaga kiritilavermasligi mumkin va shunday bo'lishi ham kerak. Axborotning bir qismi uning pedagogik ongida qoladi. Loyihalashtirish pirovard natijada o'z aksini rejada topadi» [4].

Bunda oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining o'quv faoliyatini loyihalashtirish mantig'i eng umumiy ko'rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- o'qitishning didaktik maqsadlarini aniqlash, kutilayotgan didaktik natijani o'lchanadigan parametrlarda tavsiflash;
- o'qitish mazmunini mutaxassisning bo'lajak kasbiy faoliyati doirasida asoslash;
- o'quv materiali mazmunining strukturasi, uning axborot sig'imi va Shuningdek, uning elementlari orasidagi ma'naviy bog'lanishlarni aniqlash;
- o'qitishning jarayoniy tomonini ishlab chiqish: talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan kasbiy tajribani bilish va uni amaliy vazifalar tizimi ko'rinishida ifodalash;
- bu tajribani o'zlashtirishning maxsus didaktik tomonlarini, yakka tartibli (individual) va jamoaviy o'quv faoliyatining maqbul metodlari, shakllari va vositalarini izlash;
- talabalar bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlari darajasida o'zlashtirilayotgan tajribani yangi faoliyat sohalariga ko'chirish maqsadida pedagogik o'zaro ta'sirni tashkil etish mantig'ini aniqlash;
- o'quv dasturini o'zlashtirish sifatini nazorat qilish.

Demak, yuqorida keltirilgan har bir bosqich boshqalaridan hal etilayotgan vazifalari va olinayotgan natijasi bilan farq qiladi. Bu loyihalashtirish jarayoni mantig'iga muvofiqdir va kafolatlangan natijaga erishishni ta'minlaydi.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqadiki, pedagogik loyiha pedagogning amallari ketma-ketligi sifatida yuqorida ko'rsatilgan tartibda mutaxassislarni tayyorlashning dolzarb muammosini hal etish imkonini beradi va oliy ta'lim muassasasining ta'lim amaliyotida ommaviy foydalanish uchun qulaydir. Masofaviy o'qitish uslubi asosida talaba-yoshlarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan

bo'lib, o'qituvchi bilan tinglovchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va tinglovchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni uzatish kanallarining rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi
2. va tarixi Fan va texnologiyalar. 2010-yil74.00M 41 Y 7007
3. S.S.G'ulomov va boShq. Iqtisodiy informatika.- T.:1999.
4. S.Rahmonqulova. Internetdan foydalaniSh.- T.:2001.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - QarShi.: Nasaf, 2000/
6. Farberman B. Ilor pedagogik texnologiyalar - T., 2001
7. YohldoShev J., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004
8. Shodmonova Sh., XoShimova M.,Fayzullaeva N. Tarbiyaviy iShlar uslubiyoti. T.: Fan va texnologiyalari. 2008 y.
9. Sh.Shodmonava, N.Mirsagatova, G.Ibragimova, M.Mirsolieva Pedagogik texnologiyalar T.:" 2011.